



Bankning ichki me'yoriy hujjati

**“Hamkorbank” ATB xodimlariga mehnatga haq to‘lash tizimi
to‘g‘risidagi Nizom**

Ro‘yxat raqami:

08-4/1 XБД

Ro‘yxatga olingan sana:

28.08.2023

Qabul qilgan bank boshqaruv organi:

Bank Boshqaruvi

Qabul qilgan hujjat:

Boshqaruv qarori

Raqami va sanasi:

545-sonli, 28.08.2023

Andijon – 2023- yil

**Boshqaruv a'zolari:**

B. Jo'rayev
A. Raxmanov
S.Shamsiddinov
M.Arslanov
Sh. Muxitdinov
O. To'rajonova
I.Salidjanov

Bank Boshqaruvining 2023 yil «28» avgustdagi 545- sonli qaroriga ilova

“Hamkorbank” ATB xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimi to'g'risidagi
Nizom

1-bob. Umumiy qoidalar**2-bob. Mehnatga xaq to'lash tizimining elementlari****1-§. Mehnatga haq to'lash tizimining elementlari****2-§. Ish haqi****3-§. Mukofot to'lovi****4-§. Yil yakuni bo'yicha mukofot****5-§. Qo'shimcha to'lovlar****6-§. Imtiyozlar****7-§. Majburiy to'lovlar****8-§. Rag'batlantirish tusidagi to'lovlar****3-bob. Yakuniy qoidalar****1-ilova ayrim vazifalarni bajargani uchun xodimga to'lanadigan qo'shimcha haq miqdori****1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi va “Hamkorbank” ATB (keyingi o'rinlarda - Bank) bankning 2023-2025-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasi va bankning ichki me'yoriy hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, bank xodimlariga mehnat haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni hisob – kitobini va to'lash tartibini belgilab beradi.

2. Nizomda quyidagi atamalardan foydalaniladi:

lavozim – xodimning shtat jadvalida egallab turgan malakaviy o'rni;

greyding tizimi - lavozimni muhimligiga va unga nisbatan qo'yilgan talablarga qarab adolatli ish haqini belgilash uchun lavozimni baholash tizimi;

greyd – bankning lavozim birliklariga ushbu lavozimlarning muhimlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Har bir greyd uchun belgilangan bazaviy ish haqi eng kam, o'rta va eng yuqori daraja (“vilka”) bilan tartibga solinadi;

asosiy ish haqi – xodimga belgilangan mehnat normalariga ko'ra haqiqatda ishlab berilgan vaqt yoki haqiqatda bajarilgan ish uchun to'lanadigan oylik pul to'lovi;

mukofot to'lovi – xodimni oldindan belgilangan ko'rsatkichlar va shartlarga erishishga undash maqsadida ish haqining tarkibiga kiritilgan hamda xodimga asosiy ish xaqidan tashqari har oylik to'lanadigan pul to'lovidir

2-bob. Mehnatga xaq to'lash tizimining tuzilishi

1-§. Mehnatga haq to'lash tizimining elementlari

4. Mehnatga haq to'lash xodimlar ish haqi miqdorini mehnatning miqdori va sifatiga, ularning shaxsiy va jamoaviy natijalariga bog'liqligini belgilash va ularni amalga oshirish yuzasidan mehnat shartnomasi taraflari o'rtasidagi mehnat to'g'risidagi qonunchilik, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar va mehnat shartnomasi bilan tartibga solingan munosabatlar tizimidir.

5. Mehnatga xaq to'lash tizimining asosiy elementlari: asosiy (bazaviy) ish haqi, mukofotlar, yil yakuni bo'yicha mukofot, qo'shimcha to'lovlar, imtiyozlar va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar hisoblanadi.

2-§. Asosiy ish haqi

6. Asosiy ish haqi xodim uchun mehnat shartnomasiga asosan shartnoma amal qilgan davrida har oy uchun xaqiqatda ishlagan ish kunlarini yoki haqiqatda bajarilgan ishlarini inobatga olib to'lanishi kafolatlanadigan pul to'lovidir.

7. Asosiy ish haqi greyd asosida to'lanadigan yoki qat'iy belgilangan ish haqi shaklida bo'lishi mumkin.

8. Bankda lavozimlar uchun kat'iy belgilangan ish haqi shaklini belgilash bank Boshqaruvi ruxsati bilan amalga oshiriladi.

9. Greyd asosida belgilangan ish haqining har bir greydi uchta daraja(vilka)ga bo'linadi. Bu uchta daraja bitta greyd ichida uch xil mehnat haqi miqdorini ifodalaydi.

10. Asosiy ish haqi miqdori xodimning egallab turgan lavozimidan kelib chiqib, xodim uchun belgilangan greyd va vilkaga asosan tayinlanadi.

11. Bankning Boshqaruvi raisi, uning o'rinbosarlari, Boshqaruv a'zolari, Komplayens nazorat departamenti direktori, Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti direktori, Ichki audit xizmati boshlig'i va uning xodimlarining asosiy ish haqi miqdori bank Kengashi tomonidan belgilanadi.

12. Bosh bank va tarmoqlar xodimlariga ish haqi to'lash greydlari va vilkalari bo'yicha belgilangan ish haqi miqdorlari bankda tuzilgan maxsus ishchi guruh tomonidan greyding tizimi orqali lavozimlarni baholash yo'li bilan aniqlanib, bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

13. Ish haqi to'lash bo'yicha bank tarmoqlari kategoriyalarga ajratiladi. Bank Boshqaruvi tomonidan dastlabki eng past kategoriya bilan boshqa kategoriyalar ish haqi nisbatini belgilovchi koeffitsientlar belgilanadi. Dastlabki eng past kategoriya bo'yicha belgilangan ish haqlari hamda belgilangan koeffitsiyentlar orqali keyingi kategoriyalar har bir greyd ish haqi aniqlanadi.

14. Tarmoqlarning ish haqi to'lash bo'yicha kategoriyasi quyidagi ko'rsatkichlarga bog'lanadi: bank tarmog'ining hududiy joylashuvi, tarmoqlar joylashgan hududi va ushbu hududdagi iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari;

mehnat unumdorligi ko'rsatkichi (o'rtacha 1 oyda bir xodimga to'g'ri keladigan "foyda");

15. Dastlab tarmoqlar joylashgan hududdan kelib chiqib kategoriyalarga ajratiladi va tarmoqlar mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan kelib chiqib ish haqi to'lash bo'yicha yakuniy kategoriyasi belgilanadi va bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

16. Tarmoqlarlar kategoriyalarini aniqlovchi shkalalar hamda koeffitsiyentlar har 6 (olti) oyda Bank Boshqaruvida qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi mumkin.

17. Tarmoqlarni ish xaqi to'lash bo'yicha kategoriyalarga ajratish har 6 (olti) oyda bank Boshqaruvida ko'rib chiqiladi.

3-§. Mukofot to'lovi

18. Mukofot to'lovi bir oy avvalgi hisobot davridagi faoliyat natijalaridan kelib chiqib to'lanadi.

19. Mukofot to'lovi asosiy ish haqiga nisbatan koeffitsientlarda belgilanib, ushbu koeffitsient Bank Boshqaruvi qaroriga asosan tasdiqlanadi.

20. Bank xodimlarining faoliyat natijalaridan kelib chiqib mukofot to'lovini to'lash **"Hamkorbank" ATB da xodimlarga mukofot to'lovi hisoblash Tartibiga** asosan amalga oshiriladi.

21. Bank Kengashi a'zolari uchun mukofot to'lovlarini hisob-kitob qilish usullari alohida lokal hujjatlarda belgilanadi.

4-§. Yil yakuni bo'yicha mukofot

22. Bank xodimlarini yillik faoliyati yakunlari bo'yicha mukofotlash bank Boshqaruvining qarori bilan amalga oshiriladi. Xodimlarni yillik mukofotlash bo'yicha umumbelgilangan qoidalar **"Hamkorbank" ATB xodimlarini yillik asosiy biznes reja ko'rsatkichlari natijalariga asosan yil yakuni bo'yicha mukofotlash Tartibida** belgilanadi.

5-§. Qo'shimcha to'lovlar

23. Bank xodimlarini moddiy jixatdan qo'llab – quvvatlash maqsadida qo'shimcha to'lovlar ajratilishi mumkin.

24. Xodimlarga yillik asosiy va qo'shimcha ta'tillar hamda xodimlar o'qishlari bilan bog'liq ta'tillar uchun to'lovlar ajratiladi.

25. Xodim o'ziga biriktirilgan xizmat vazifalardan tashqari vazifalarni bajarilishi yuklatilgan vaqtda qo'shimcha to'lov ajratiladi.

26. Bayram va dam olish kunlari ishga jalb qilingan xodimlarga mehnat qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda haq to'lab beriladi.

27. Bankda yosh mutaxassislarni ishga o'rgatish va murabbiylik qilish uchun haq to'lash Bank Boshqaruvi Raisining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

28. Bosh bankda alohida yo'nalishlarda masalalarni muhokama qilish uchun tashkil qilingan guruh (qo'mita) a'zolariga bank Boshqaruvi Raisining buyrug'iga asosan qo'shimcha haq to'lab berilishi mumkin.

29. Mazkur nizomining 1-ilovasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarganligi uchun xodimlarga qo'shimcha haq to'lab boriladi.

30. Kassa tizimida ishlovchi xodimlarga sog'liqlarini himoya qilish maqsadida Bank Boshqaruvi Raisining buyrug'iga asosan sut mahsulotlari uchun to'lov ajratiladi.

31. **Xodimlarga alohida qo'shimcha to'lovlar.** Bankning raqobatbardoshligini oshirish, faoliyatini sog'lomlashtirish, yuqori malakali xodimlarni jalb qilish maqsadida Bank Boshqaruvi Raisining buyrug'i bilan alohida kasb mahoratiga ega xodimlarga mehnat haqiga qo'shimcha tarzda to'lov amalga oshirilib borilishi mumkin.

6-§. Imtiyozlar

32. Bank xodimlarini qo'llab – quvvatlash maqsadida 3 turdagi imtiyozlar belgilanadi:

- lavozimga bog'liq bo'lmagan ijtimoiy to'lovlar (sotsialnyy paket);
- lavozimga bog'liq bo'lgan;

- biznes bilan bog'liq imtiyozlar (Bosh bank tavsiyasiga asosan hududlarda biznesni ko'llab quvvatlash maqsadida raxbarlik va muhim lavozimlarga yuborilgan xodimlari uchun).

33. Bank xodimlariga tushlik xarajatlarini qoplash maqsadida har oyda Bank Boshqaruvi raisining buyrug'iga asosan to'lov amalga oshiriladi.

34. Har oyda shtat jadvaliga asosan ishlayotgan xodimlarga qonunchilikda belgilangan amaldagi bazaviy hisoblash miqdorning bir barobari miqdorida qishloq xo'jaligi maxsulotlari sotib olish uchun moddiy yordam ajratiladi.

35. Bank xodimlariga bayram kunlari, yubiley sanalari, o'tkazilgan musobaqalar va tadbirlar munosabati bilan Bank Boshqaruvi Raisining buyrug'iga asosan qimmatli sovg'alar taqdim qilinishi mumkin.

36. Xodimlarga to'y va dafn marosimlari, yubiley sanalari va tabiiy ofatlar (yong'in, baxtsiz xodisa va boshqa) natijasida zarar ko'rganda, **"Hamkorbank" ATB xodimlariga moddiy yordam ajratish bo'yicha Tartibiga** asosan moddiy yordam ajratiladi.

37. Bank xodimlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish va sog'liqlarini tiklash maqsadida kalendar yilida bir marotaba mehnat ta'tiliga chiqish oldidan xodimga **"Hamkorbank" ATBda xodimlarga ta'tillar berish va undan chakirib olish to'g'risidagi Tartibga** asosan qo'shimcha to'lov ajratiladi. Agarda, xodim mehnat ta'tiliga chiqayotganda bir vaqtning o'zida mehnat shartnomasi bekor qilinishi ko'zda tutilgan bo'lsa qo'shimcha to'lov ajratilmaydi.

38. O'zing doimiy yashash joyidan boshqa xududlarga o'tkazilgan xodimlarning turar-joy yoki transport xarajatlarini qoplash uchun to'lovlar Bank Boshqaruvi Raisi buyrug'iga asosan amalga oshirilishi mumkin.

7-§. Majburiy to'lovlar

39. Bank xodimlariga O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga va bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq quyidagi majburiy to'lovlar amalga oshiriladi:

- xodimning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi davri uchun (kasallik varaqalari) uchun to'lov;
- ayollarning xomiladorlik va tug'ish ta'tili hamda bolani parvarishlash ta'tili uchun to'lov.
- xodimni bank tomonidan xizmat safarga yuborilishi munosabati bilan xizmat safari bilan bog'liq to'lovlar.

- ish beruvchining taklifiga binoan xodim boshqa joydagi ishga ko'chib borganda ko'chish va mol-mulkni ko'chirib borish bilan bog'liq xarajatlar.

- Tibbiy ko'rikdan o'tganlik uchun xarajatlar.

40. Bankda xodimlarga boshqa turdagi har qanday qo'shimcha to'lovlarning ajratilishi bank Boshqaruvi Raisining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

8-§. Rag'batlantirish tusidagi to'lovlar

41. Bank strategiyasidan kelib chiqib, bank faoliyatini rivojlantirish, samaradorligini oshirish maqsadida bank Boshqaruvi tomonidan alohida natijalarga erishgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha tartiblarga asosan alohida rag'batlantirish ko'zda tutiladi. Ushbu tadbirlar quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

bir martalik rag'batlantirish (mukofot yoki bonus). Bankning alohida biznes yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadida xodimlarni moddiy rag'batlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan tartib asosida amalga oshiriladi;

tizimli rag'batlantirish – jamoaviy / shaxsiy yutuqlarga erishgan xodimlarni va bo'linmalarni (tarmok / BXO) moddiy rag'batlantirish har chorakda / yarim yillikda va yil yakuni bo'yicha Bank Boshqaruvining qaroriga asosan va Boshqaruv Raisining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

alohida tarzda rag'batlantirish (komission to'lov). Bankni ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun alohida ishlar, tadbirlarni amalga oshirgan yoki ushbu tadbirlarda faol ishtirok etgan xodimlar bank Boshqaruvi Raisining buyrug'iga asosan alohida tarzda bir marotabalik rag'batlantirilishi mumkin.

42. Ushbu to'lovlarning eng yuqori miqdori Bank boshqaruvi tomonidan tartibga solinadi

3-bob. Yakuniy qoidalar

43. Bank xodimlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiliklariga asosan majburiy deb belgilangan to'lovlarni to'laydi.

44. "Hamkorbank" ATBda xodimlarga intizomiy jazo choralari ko'rish Tartibi»ga asosan intizomiy jazoni amal qilish muddatida intizomiy javobgarlikka tortilgan xodimlarga **mukofot to'lovi** va **rag'batlantirish tusidagi to'lovlar to'lanmaydi**.

45. Ushbu nizomda ko'rsatilgan holatlar bo'yicha nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda Bank Boshqaruvi va Birlashgan Kasaba uyushmasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

46. Mazkur hujjat kuchga kirishi munosabati bilan bank Boshqaruvining 2015-yil 6-iyuldagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Hamkorbank" ATB xodimlariga mehnatga haq to'lash tizimi to'g'risidagi Nizom o'z kuchini yuqotgan hisoblanadi.

Ilova №1

№	Faoliyat turlari	Qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan foizda
1	Kechki kassa buxgalteri va kassiri	70%
2	Ombor mudiri	60%
3	Arxiv ishi (arxivarius)	60%

**Mehnat unumdorligi va
rag'batlantirish bo'limi
boshlig'i:**

M.Qurbanov

Huquqshunos:

A.Komilov



YURIDIK XULOSA

“Hamkorbank” ATB xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning yangi tahriri loyihasi yuzasidan

2023-yil 10-avgust

Andijon shahri

Men, “Hamkorbank” ATB Yuridik xizmati Bank tuzilmalarini huquqiy ta’minlash bo‘limi boshlig‘i A.Komilov ushbu kuni Xodimlar bilan ishlash departamenti tomonidan taqdim qilingan “Hamkorbank” ATB xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning yangi tahriri loyihasi bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

a n i q l a d i m :

Xodimlar bilan ishlash departamenti tomonidan taqdim etilgan “Hamkorbank” ATB xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning yangi tahriri loyihasi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, bankning Jamoa shartnomasi talablari asosida ishlab chiqilgan.

Nizom loyihasida amaldagi qonunchilik hujjatlari va bankning ichki lokal hujjatlari talablariga zid keluvchi qoidalar aniqlanmadi. Loyiha qoidalari amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 916-son bilan ro‘yxatga olingan "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom talablariga mos keladi.

Yuqoridagilarga asosan taqdim etilgan loyihani huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

XULOSA QILAMAN:

Xodimlar bilan ishlash departamenti tomonidan taqdim qilingan “Hamkorbank” ATB xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning yangi tahriri loyihasi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

**Bank tuzilmalarini huquqiy
ta’minlash bo‘limi boshlig‘i**



A.Komilov